

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TARJIMONNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Mamarajabov Botir Baxodir o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi, PhD.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15349347>

Annotatsiya. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tarjimonning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni yoritilgan. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tarjimonning kasbiy kompetentligini rivojlantirish yondashuvlari tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Akmeologik yondashuv, bo'lajak tarjimonlar, kasbiy kompetentlik, integral sifat, kasbiy muhim xislatlari, kompetentlik, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, bilim, malaka, ko'nikmalar, qobiliyatlar, yondashuvlari

Abstract: The content of developing the professional competence of a future translator based on the acmeological approach is highlighted. An analysis of approaches to developing the professional competence of a future translator based on the acmeological approach is carried out.

Keywords: Acmeological approach, future translators, professional competence, integral quality, important professional qualities, competence, competence, professional competence, knowledge, skills, abilities, approaches

Dunyodagi ilmiy tadqiqot tashkilotlarida bo'lajak tarjimonlarining kasbiy muloqat kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida loyihalashtirish, kasbiy tarjima tayyorgarligini maxsus maqsadlar uchun akmeologik yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv jarayonida lingomadaniyatshunoslik va madaniyatlararo kommunikativ sifatlarni va til kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bo'lajak tarjimonlarga chet tilini o'qitish va kasbga tayyorlash infrostrukturasining kasbiy faoliyatiga alohidor parametrlar doirasida rivojlantirish ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, xorijiy til ko'nikmalarini rivojlanish darajasini diagnostikasini amalga oshirish, modulli ta'limni yo'lga qo'yish, ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, tarjimonlar professionalligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga aloxida e'tibor berilmoqda. Hozirgi dunyoda kechayotgan integratsiya jarayonlari, xalqaro hamkorlik sohalari kengayishi tubdan yangi, ko'pqirrali ijtimoiy-madaniy makonni shakllanishiga olib kelmoqda. Bu sharoitda barcha sohalarda madaniyatlararo kommunikatsiyani ta'minlash birinchi darajali masalaga aylanmoqda va bu va bu masalani professional darajada chet tillarni egallagan mutaxassis-tarjimonlarsiz hal etish mumkin emas. Shu munosabat hozirgi vaqtda akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash masalalari alohida dolzarb bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda bo'lajak tarjimonlarini tayyorlash jarayonini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etish, ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi asosida xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan mutaxassislar tayyorlash, jaxon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng foydalanishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda va moddiy-texnik bazasi boyitilmoqda. "Xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish va ta'lim sifatini baholash asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish" ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, oliy ta'lim muassasalarida tillarning fanlarga integrallashtirilgan holda o'rgatish imkoniyati kengaytirildi.

Faoliyatli yondashuvi nuqtai nazaridan kasbiy kompetentlik faoliyatda doimo namoyon bo'ladi. E. Giddens, P. Burde, P. Shtompka, V.A. Yadov, T.P. Zaslavskaya e'tiroficha, sub'ektning faoliyati va faolligi jamiyat va shaxsni rivojlantirishga rag'bat bo'ladi. Biroq, faoliyatli yondashuv odamni vizual qabul qilinadigan harakatlardan tashqarida turadigan hamma narsani ko'rishga imkon bermaydi. Shu sababli, ba'zi olimlar bu murakkab hodisaga bir vaqtning o'zida bir nechta fanlarning imkoniyatlaridan foydalanib yondashadilar. Masalan, sinergetik yondashuv vakillari G. Xaken, I. Prigojin, Yu. Lotman, S.P. Kapitsa, S.P. Kurdyumov, G.G. Malinetskiy kasbiy kompetentlikni shaxsning umumlashtirilgan va chuqur shakllangan fazilatlarini, uning olgan bilimlaridan universal foydalanish va qo'llash qobiliyati hamda kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida ko'nikmalar sifatida aniqlaydilar [4].

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan L. Amirova, 3. Bagishayev kasbiy kompetentlikda o'z negizida shaxsiy faollikka ega bo'lgan kasbiy ishbilarmonlik, shaxsning moslashuvchanligiga asoslangan kasbiy egiluvchanlik, psixologik poydevori ijodiy faoliyat ko'rsatish qobiliyati bo'lgan kasbiy innovatorlik bilan bir qatorda kasbiy mobillik ham ajratadilar [1].

Kompetentli yondashuv doirasida V.A. Bolotov, J.L. Piter, J. Raven, V.V. Serikov, A.V. Xutoskoy kasbiy kompetentlikni shaxsning bilim, malaka, qobiliyatlari va uni shakllanayotgan vaziyatda harakat qilish va yuqori darajadagi noaniqlikka ega bo'lgan kasbiy vazifalarni hal etishga tayyorgarligi birligi hamda mehnatning sifatliroq natijasiga erishish qobiliyati va tayyorligi, kasbga qadriyat sifatida munosabat deb tushunishni taklif etadilar. J. Raven kasbiy kompetentlik deganda nafaqat bevosita amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarni, balki insonning dunyoqarashini, uning tabiat, jamiyat va odamlar haqidagi umumiy g'oyalarini ham tushungan [3].

Turli olimlarning tahlil qilingan nuqtai nazarlarini umumlashtirib, quyidagi xulosa qilish mumkin: kasbiy kompetentlik muayyan sohalarida umumlashtirilgan malaka va bilimlar bilan uyg'unlashgan holda faoliyat ko'rsatish xususiyatiga ega; aniq kasbiy vaziyatda o'zini adekvat baholashdan kelib chiqqan holda, shaxsni tanlashni amalga oshirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Kompetentli mutaxassis kelajakka intiladi, o'zgarishlarni oldindan ko'radi, mustaqil ta'limga yo'naltirilgan. Kasbiy kompetentlikning muhim xususiyati shundaki, kompetentlik hozirgi vaqtda amalga oshiriladi, ammo kelajakka yo'naltirilgan.

Olimlarning nuqtai nazarini qabul qilgan holda, biz kasbiy kompetentlikni faqat fan sohasidagi bilimlar bilan cheklamaslikka moyilmiz, bunday yondashuvni juda tor va bir tomonlama deb hisoblaymiz. Shakllangan holat biz tomondan bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetentligi tarkibiy qismlarini ajratishda inobatga olinadi.

Ta'kidlash joizki, ilmiy adabiyotida kasbiy kompetentlik tushunchasi bilan bir qatorda bu atamaga ma'no jihatdan o'xshash boshqa tushunchalardan ham foydalaniladi. Masalan, E.M. Borisova, S.G. Vershlovskiy, E.A. Klimov, T.V. Kudryavsev, A.I. Shcherbakov muallifidagi psixologik-pedagogik adabiyotlarda «shaxsning kasbiy shakllanishi», «kasbiy rivojlanish» atamalarini uchratish mumkin bu tushunchalar kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlarni integratsiyalash va ro'yobga chiqarishni, kasbiy bilim va ko'nikmalarni, barqaror kasbiy yo'nalganlikni rivojlanishini nazarda tutadi [7].

«Tayyorlik» kategoriyasi orqali kompetentlik ham E. Dyurkgeym kabi klassik olim, ham zamonaviy olimlar, xususan, M.A. Choshanov tomonidan o'rganilgan.

Akmeolog olimlar O.S. Anisimov, E.N. Bogdanov, A.A. Bodalev, A.S. Guseva, A.A. Derkach, V.G. Zazikin o'z tadqiqotlarida "professionallik" atamasidan foydalanib, uni yuqori kasbiy malaka va kompetentlikni, samarali kasbiy ko'nikma va malakalarning xilma-xilligini, kasbiy vazifalarni hal etishning zamonaviy usullarini bilishni aks ettiradigan mehnat sub'ektining sifatli tavsifi deb belgilaydi. Bularning barchasi faoliyatni eng mahsuldorli amalga oshirish imkonini beradi [4].

Ta'kidlash joizki, kasbiy rivojlanish, kasbiy shakllanish, professionallik tushunchalarini ko'rib chiqishda olimlar quyidagi atamalardan foydalanadi: bilim, malaka, ko'nikma, tajriba, xususiyatlar, usullarni egallash. Bularning barchasi xodimning kasbiy kompetentligi tushunchasi bilan qamrab olinishi mumkin.

Shunday qilib, ayon bo'ldiki, kasbiy kompetentlikka o'xshash muammolar bilan insonparvarlik yo'nalishidagi fanlar tutashgan joyda faol shug'ullanishmoqda. O.I. Donina, S.V. Koshchin, T.S. Komarova, T.V. Kudryavseva, N.I. Kalakov, T.I. Rudneva, N.B. Shmeleva, I.S. Yakimanskaya, L.Ya. Yasyukovaning pedagogika kontekstida shaxsiy-kasbiy rivojlanishning yaxlitligi va uzluksizligi, kasbiy o'zini o'zi belgilash muammolari tadqiq qilingan. Akmeologiyada insonning professionallik cho'qqilariga ko'tarilish sharoitlari va omillari o'rganilmoqda, kadrlarning professionalligi va kompetentligi o'zaro bog'liqligi jihatlari aniqlanmoqda (.

Mutaxassisning kasbiy kompetentligi masalalari G. Moskowitz, R.L. Oxford, R.C. Scarcella, E.W. Stevick, E. Tarone, J.W. Hunt va boshqalar kabi zamonaviy xorijiy olimlarning e'tiborini tortadi [2].

AQSh, Angliya, Germaniya, Fransiya'dagi bu muammoning tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi zamon xodimga talablarda e'tibor uning malaka va ma'lumotining rasmiy omillaridan uning shaxsiy fazilatlarining ijtimoiy qadriyatiga o'tib bormoqda.

Shunday qilib ayon bo'ladiki, olimlar kasbiy kompetentlikni ko'rib chiqishda o'zaro muhim deb aniq bilim va ko'nikmalar hamda psixologik fazilatlarga ega bo'lishni ham hisoblashmoqda.

Demak, E.F. Zeyer, V.N. Komisarov, A.K. Markova tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarda kasbiy kompetentlik haqidagi tushunchamiz ham o'z aksini topdi. Biz, shuningdek, kasbiy kompetentlikni mutaxassisning kasbiy faoliyatni amalga oshirishda mustaqil va mas'uliyatli harakat qilish imkonini beruvchi tegishli bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashi deb hisoblaymiz. Bunda biz nafaqat kognitiv (bilim), operatsional-texnologik faoliyat, balki aloqa o'rnatish, namunaviy kasbiy vazifalarni hal etish, his-tuyg'ularni nazorat qilish qobiliyatini o'z ichiga olgan axloqiy, ijtimoiy va xulq-atvor sohalarini tashkil etuvchi bilim, malaka va ko'nikmalarni qaraymiz. Biz akmeologiya g'oyalaridan foydalanib, yangi bilimlarni mustaqil olishga, ilg'or shaxsiy va kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan malakalarni ham qo'shamiz.

Shunday qilib, tadqiqotimiz muammosi bo'yicha ilmiy ishlarni hamda ko'plab olimlarning, umuman, kasbiy ta'limning, va, xususan, tarjimonlarning kasbiy tayyorlashning xususiyatlarini ta'riflovchi nuqtai nazarlarini sharhlash, shuningdek, tarjimonlarni o'qitish bo'yicha fakultetlarning ish tajribasini o'rganish, tarjimashunoslik kursining normativ bazalari va dasturlarini solishtirish shuni ko'rsatdiki, ularda gnoseologik, etnolingvistik, psixologik va axborot-texnologik komponentlar birligida tarjimonlarning kasbiy kompetentligini shakllantirilishi nazarda tutilmagan. Bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash jarayoni mazkur bosqichda faqat talabalarning nutq faoliyatining asosiy turlarini til va

predmetli shakllarida egallashidan iboratdir. Bunday an'anaviy tarzda qo'yilgan o'qitish o'z-o'zidan yuqorida bayon etilgan o'ziga xos fazilatlarga ega kasbiy kompetentli tarjimon tayyorlashni ta'minlay olmaydi.

Shunday qilib, ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy kasbiy ta'limi maqsadlari an'anaviy ravishda bitiruvchi egallashi kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar to'plami bilan belgilandi. Bugungi kunda bunday yondashuv yetarli emas. Jamiyatga, birinchi navbatda, ish beruvchiga, ishlab chiqarishga keyinchalik hayotiy faoliyatga kirishishga tayyor, o'z oldiga payda bo'ladigan hayotiy va kasbiy muammolarni amalda hal qilishga qodir tarjimonlar kerak. Bu esa nafaqat olingan bilim, malaka va ko'nikmalarga, balki yangiliklarni idrok qilish va o'zlashtirish, ya'ni yangi bilimlarni, kasbiy faoliyatning yangi turlari va shakllarini, tashkil etish va boshqaruvning yangi usullarini, yangi estetik va madaniy qadriyatlarni, qobiliyatiga bog'liq. Bo'lajak mutaxassisda o'zgaruvchan kasb muhitiga va ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlariga moslashish usullarini shakllantirish, ehtiyojlar, yangi, bir martali bo'lmagan, doimiy o'z-o'zini o'zi tarbiyalashni o'zlashtirish va oldindan ko'ra bilish malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.

Demak, bo'lajak tarjimonlar kasbiy kompetentligini shakllantirishning samarali yo'llarini izlash faoliyatli, tizimli, kompetentli, sinergetik, madaniyatshunoslik yondashuvlar yo'nalishida olib borilishi lozim.

Shakllantirilgan xulosalar tarjimonlarni zamonaviy sharoitda tayyorlash uchun quyidagi istiqbolli yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) talabalarni oliy o'quv muassasasida tarjimonlarni o'qitish jarayonida amaliy faoliyatga faol jalb etish;
- 2) bo'lajak tarjimonlarni tarjima faoliyatida qo'llaniladigan ATdan faol foydalangan holda tayyorlash;
- 3) bo'lajak tarjimonning kasbiy kompetentligining gnoseologik, etnolingvistik, axborot-texnologik va psixologik komponentlarini hisobga oluvchi o'quv-metodik kompleksning mavjudligi.

Bo'lajak tarjimonning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonini bunday tushunish tarjima jarayonining mohiyatini juda aniq aks ettiradi, va tarjimani maxsus faoliyat turi sifatida o'rgatuvchi nazariyani yaratishga yo'l ochadi.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Деркач, А.А. Акмеология - СПб.: Питер, 2003.-256 с.
2. Деркач, А.А. Методолого-прикладные основы акмеологических исследований - М., 2000.
3. Латышев, Л.К. Перевод : теория, практика и методика преподавания : учеб, пособие для студ. перевод, фак. высш. учеб, заведений - М.: Издательский центр «Академия», 2003. - 192 с.
4. Миньяр-Белоручев, Р.К. Последовательный перевод. Теория и методы обучения . - М.: Воениздат, 1969. - 288 с.
5. Мирам, Г.Э. Переводные картинки. - К.: Ника-центр, 1999.

6. Робинсон, Д. Как стать переводчиком : введение в теорию и практику перевода : пер. с англ. - М.: КУДИЦ-ОБРАЗ, 2005. - 304 с.
7. Сластенин, В.А. Профессионализм педагога: акмеологический подход / Пед. образование и наука. - 2002. - № 4. - С. 4-9.
8. Халеева, И.И. Подготовка переводчика как «вторичной языковой личности» (аудитивный аспект) // Тетради переводчика : науч.-теор. сб. - М., 1999. -Вып. № 24.